



Bo'lajak logopedlarni korrektsion mashg'ulotlarda logopedik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlashning mazmuni

Maxmudov Xurshid Shuxratovich

Qo'qon davlat universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Bo'lajak logopedlarni korrektsion mashg'ulotlarda logopedik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash mazmuni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ko'p bosqichli pedagogik jarayonni ifodalaydi. Ushbu jarayon bo'lajak mutaxassislarining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda kasbiy-refleksiv malakalarini uyg'un rivojlantirishni nazarda tutadi. Tayyorlash mazmuni logopediya fanining ilmiy asoslari, nutq buzilishlarining etiologiyasi va mexanizmlari, diagnostika metodlari hamda korrektsion-pedagogik ta'sir texnologiyalarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Mazkur tayyorgarlik jarayonida logopedik mashqlar tizimidan foydalanishning metodik asoslarini egallash muhim o'rin tutadi. Talabalar artikulyatsion, nafas, fonematik eshituvni rivojlantirish, leksik-grammatik tuzilmani boyitish hamda bog'langan nutqni shakllantirishga qaratilgan mashqlarni tanlash, moslashtirish va tizimli qo'llash ko'nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, individual yondashuv tamoyili asosida mashqlarni bolaning yosh, psixologik va nutqiy xususiyatlariga muvofiq rejalashtirish malakasi shakllantiriladi.

Bo'lajak logopedlarni tayyorlash mazmuni amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, treninglar va refleksiv tahlil orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonda talabalarda korrektsion mashg'ulotlarni loyihalash, natijalarni monitoring qilish hamda logopedik ta'sir samaradorligini baholash kompetensiyalari rivojlantiriladi. Natijada bo'lajak mutaxassislar logopedik mashqlar tizimidan ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan va samarali foydalanishga tayyor holatga keladilar.

Logopedik texnologiya — nutq buzilishlarini aniqlash, korreksiyalash va profilaktika qilish jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga qaratilgan pedagogik-logopedik faoliyat tizimidir. U maxsus metodlar, usullar, didaktik vositalar, mashg'ulot shakllari hamda bosqichma-bosqich rejalashtirilgan ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi. Logopedik texnologiya nutq faoliyatining fonetik-fonematik, leksik-grammatik va kommunikativ komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bolaning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Mazkur texnologiya logopedik ta'sirning tizimliliigi, izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi. U diagnostika, korreksiya va monitoring bosqichlarining o'zaro uzviy bog'liqligiga asosan, nutq kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga shaxsning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Logopedik texnologiya zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda interaktiv o'qitish vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi va logopedik ishning ilmiy-metodik asosini tashkil etadi.

Logopediya yo'nalishda tahsil oluvchi bo'lajak mutaxassislar logopedik mashqlar tizimini puxta o'zlashtirishi, ularning turlari, o'tkazish usullari, bolalar bilan ishlashda qanday didaktik yo'nalishda amalga oshirish mumkinligi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu borada logopediya, logopediya, psixologiya, musiqa ta'limi, metodika va sohaga tegishli boshqa modullar mazmunida logotexnologiya asoslari aks etishi muhimdir. Talabalar ushbu fanlarni keng qamrovda o'rganar ekan, ularni bir-biri bilan bog'liq holda analiz qilishi, tor doira mutaxassislar bilan muloqotda bo'lishi, nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitish imkoniyati paydo bo'ladi. SHu tariqa, logopedik mashqlar – korreksion yo'naltirilgan soha mutaxassislari uchun nazariyani amaliyot bilan bog'lovchi nazariy-amaliy ko'priki vazifasini bajaradi. SHuning uchun logopediya yo'nalishi talabalarini logopedik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash ixtisoslik modullari negizida olib boriladi. Asosan, Logopediya, Logopedik texnologiya kabi modullarning mavzulariga logopedik mashqlarni singdirishga e'tibor qaratildi. Mashqlarni singdirishda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning korreksion-didaktik xususiyatlariga e'tibor qaratildi. Bunda L.Muminova, M.Ayupova, SH.Aripova, SH.Taxtayarova, L.Xayitov kabilarning tadqiqot ishlarida amaliyotga joriy etilgan tavsiyalarga tayanildi. Sanab o'tilgan ishlarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashning tovush qo'yishi, avtomatizatsiya va differentsiatsiya hamda bog'langan nutqqa o'rgatish kabi bosqichlar bo'yicha tavsiflar bir-birini to'ldirishi aniqlandi. SHuning uchun bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik mashqlar tizimidan foydalanishga talabalarni tayyorlash bo'yicha taklif etilgan metodik tizimning didaktik imkoniyatlari korreksiya ishlarida harakat va kinestetik ta'sirni ritmik sinxronlashtirishni individual rejalashtirish orqali aniqlandi. Natijada nutqiy reabilitatsiya jarayonini vizual-informativ optimallashtirishga erishildi. Ya'ni talabalarni logopedik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari korreksiya ishlarida harakat va kinestetik ta'sirni ritmik sinxronlashtirishga qaratilgan individual xaritani nutqiy reabilitatsiya jarayonida vizual-informativ optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan.

Bo'lajak logopedlarni logopedik mashqlardan foydalanishga tayyorlashda eng samarali metodlardan biri – mashg'ulotlarni interfaol tashkil etishdir. Ya'ni talabalar logopedik mashqlarning mazmuni, maqsadi va natijalarini joriy qiyollash (modellash) asosida o'rganishlari mumkin. Bunda interv'yu tahliliga mos syujetlar, videoroliklar, multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali ular mantiqiy to'plam ko'rinishida bir qator mashqlar bilan tanishtiriladi va o'z fikr-mulohazalarini ilgari suradi. SHuningdek, talaba-yoshlar o'rtasida "o'qituvchi–talaba–bolalar" shaklida rolli o'yin metodlaridan simulyatsiya mashg'ulotlari jarayonida foydalanish, talabalarda mustaqil ravishda logopedik mashqlarni terapevtik uslubda tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bunday uslubiy yondashuv, bir tomondan, talabalarda mantiqiy fikrlash, yangicha g'oyalar yaratish, tashabbuskorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirsa, boshqa tomondan, ularda logopedik mashqlar tizimining turli ko'rinishlarini tahlil qila olish malakalari rivojlanadi.